

JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRALAYOTGAN ISLOHOTLAR

Kamolova Sarvinoz O'rol qizi

Alfraganus universiteti "Xalqaro munosabatlar"

yo'nalishi, 3-kurs talabasi

kamolovasarvinoz33@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston xotin-qizlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida olg'a surgan "Ayolni e'zozlash – ezgulik va adolat mezon" degan ezgu g'oya asosida mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar qabul qilingan huquqiy hujjatlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, islohotlar, gender tenglik, huquqiy baza, rahbar ayollar, parlament, ayollar huquqlari, ayollar siyosati.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda barqaror taraqqiyotga erishish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy jarayonlardagi faolligi muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida ayollarning jamiyatlardagi mavqeini oshirish, ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayollar nafaqat oilaviy hayot, balki ijtimoiy va siyosiy qarorlar qabul qilishda faol ishtirok eta boshladi. Bu esa davlat siyosatining insonparvarlik va gender tenglik tamoyillariga asoslanayotganini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Bu jihatlar xalqaro miqyosda ham keng e'tirof etilmoqda. Shu jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni xalqaro doiralarda ham targ'ib qilib, butun dunyo jamoatchiligi diqqat-e'tiborini ayni masalaga qaratib keladi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ham milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat ekaniga urg'u berib, jumladan, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanimizni ta'kidladi. Shuningdek, kelgusi yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazishni taklif qildi.

ASOSIY QISM

Mamlakatimizda ayol va qizlarni qo'llab-quvvatlash uchun 2019-yil 2-

sentyabrida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 7-bob 32 moddadan iborat qonun qabul qilingan. Ushbu qabul qilingan qonunning maqsadi “xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat” [2,1]. Ushbu qonun orqali Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratib berish ishlarini yangi bir sifat darajasiga olib chiqdi deb aysak o‘rinli bo‘ladi. Ushbu qonunga ko‘ra xotin-qizlarimizni ta’lim olishida, ilm-fan bilan shug‘ullanishida quyidagi huquqlari kafolatlanadi. “Davlat ta’lim olish huquqini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratilishini ta’minlaydi. Davlat quyidagilarni kafolatlaydi: xotin-qizlar va erkaklarning ta’lim olish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning barcha turlaridan foydalanishga, ta’lim va ilmiy jarayonni amalga oshirishda ishtirok etishga hamda madaniyatdan, madaniy qadriyatlar va merosdan foydalanishga doir teng huquq va imkoniyatlarini; turli ta’lim dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning genderga oid ma’rifatini oshirishga ko‘maklashishni; jinslardan birining ustunligi g‘oyasiga asoslangan noto‘g‘ri tasavvurlardan xoli o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni; o‘quv dasturlari va darsliklarni jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik prinsipiga muvofiqlik yuzasidan muntazam ravishda monitoring qilishni; gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan axborot-ma’rifiy tadbirlarni rag‘batlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni. Ta’lim sohasidagi vakolatli organ ta’lim dasturlarini, ta’lim muassasalarining dasturlarini hamda rejalarini ularning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash prinsiplariga muvofiqligi jihatidan ekspertizadan o‘tkazishni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi – 17 millioni xotin-qizlardir. Ularning manfaatlarini ta’minlash, jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishidir. Oxirgi to‘rt yilda bu borada 2 ta qonun, Prezidentning 6 ta farmon va qarori qabul qilindi. Birinchi marta Senatda Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. Prezident raisligida ayni paytda o‘tayotgan yig‘ilishda xotin-qizlar salomatligi, aholi bandligi, ijtimoiy farovonlik va xavfsizlik muammolari muhokama qilinmoqda. “Eng achinarlisi, ayollarni xo‘rlash, o‘zini-o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish hamda omma oldida “savdoyi” qilish holatlari oddiy holatga aylanib bormoqda”, - deya ta’kidladi prezident O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning normativ-huquqiy asoslarini yaratishga kirishildi. Xususan, 1995-yil 2-mart kuni “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni e’lon qilindi. Farmon xotin-qizlar qo‘mitalari tizimi rivojini yangi bosqichga

ko'tardi va ayollar hayotining yanada yaxshilanishiga sharoitlar yaratdi. Bu borada xalqaro tajriba chuqur o'rganilib, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib 1995-yil 6-mayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Xotin-qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi va 1997-yil 30-avgustda "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shildi. Shuningdek, mamlakat xotin-qizlari vakllari 1995- yil 6-mayda "Tinchlik, taraqqiyot va tenglik" shiori ostida o'tkazilgan Butunjahon ayollarning IV Konferensiyasida ishtirok etdilar. Shundan so'ng O'zbekiston xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan Pekin deklaratsiyasiga qo'shildi. [3]

MUHOKAMA

O'zbekiston jamiyatida so'nggi yillarda ayollar mavqeini oshirish, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy faolligini oshirishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgiladi.

Muhokama davomida aniqlanishicha:

Ayollarni qo'llab-quvvatlashga doir institutsional mexanizmlar – "Ayollar daftari", "Lider ayollar maktabi", tuman hokimlarining ayollar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari kabi amaliy tashabbuslar orqali ayollar ijtimoiy hayotda yanada faol bo'la boshladi.

Siyosiy partiyalarda va parlamentda ayollar ulushining ortishi ularning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdagi rolini mustahkamlab bormoqda.

Ayollar uchun mo'ljallangan o'quv kurslari, mentorlik dasturlari, xalqaro grantlar ularning malakasini oshirish va ijtimoiy liftlar orqali yuqoriga ko'tarilish imkonini yaratmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda madaniy stereotiplar, ijtimoiy norasmiy to'siqlar, oila va ish o'rtasidagi muvozanatni saqlashdagi qiyinchiliklar hali-hanuz mavjud bo'lib, bu omillar ayollarning siyosiy faoliyatga to'laqonli qo'shilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Muhokamalarda shuningdek, gender masalasiga faqat ayollar masalasi sifatida emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ijtimoiy jarayon sifatida qarash zarurligi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, erkaklarning ham bu jarayonlarga jalb qilinishi, gender tenglikning ikki tomonlama tushunchasi sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

NATIJA

Tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. **Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan** va bu borada aniq mexanizmlar shakllangan.

2. **Huquqiy baza va amaliy dasturlar** xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini kuchaytirishga xizmat qilmoqda, ayniqsa, mahalliy boshqaruv organlari, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatida ularning ulushi oshmoqda.

3. **Ayollar yetakchiligi** uchun zarur shart-sharoitlar yaratilyapti, ammo bu imkoniyatlardan foydalanish har doim ham bir xil darajada emas — **hududlar, savodlilik darajasi, mahalliy mentalitetlar farqi** bunga ta'sir qilmoqda.

4. **Ayollarning siyosiy faolligini kuchaytirish** uchun mavjud qonunchilikni yanada takomillashtirish, gender ta'limini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida ijobiy ayol yetakchi obrazlarini yaratish zarur.

5. Kelgusida gender tenglikni chuqurlashtirish, **ijtimoiy va oilaviy mas'uliyatni muvozanatlashtirish**, rahbarlik lavozimlarida ayollar sonini oshirish bo'yicha izchil strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

XULOSA

Xotin-qizlarning jamiyatda, ayniqsa siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash – demokratik rivojlanish, inson huquqlari va gender tenglikning muhim ko'rsatkichidir. O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan qonunchilik va institutsional islohotlar, davlat dasturlari va amaliy harakatlar ijobiy samara bermoqda. Kelgusida bu islohotlarni chuqurlashtirish, ayollar liderligini rivojlantirish va ularni qaror qabul qilish jarayoniga kengroq jalb etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «Informatsion texnologiyalar sohasi rivojida xotinqizlarning o'rni» nomli ilmiy-amaliy konferensiyasi www.in-academy.uz
2. <https://yuz.uz/uz/news/mustahkam-oila-faol-xotin-qizlar-jamiyat-farovonligini-belgilaydi>
3. <https://strategy.uz/index.php?news=879&lang=uz>
4. International scientific and practical conference “the role of women in the development of science and the spiritual and educational sphere: problems and solutions” february 28, 2025